



INGLIZ TILIDA HARAKAT TARZI FE'LLARINING SEMANTIK GURUHLANISHI.

Karimova Munisa Yaxyoyevna

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili fe'l sistemasidagi shaxsli shakllarning semantik tahlili va harakat tarzi (aktionsart) kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Maqolada predikat semantikasini tasniflashda Z. Vendler va G. Verkyul kabi tilshunoslarning klassifikatsiyalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, harakatning davomiyligi, chegaralanganligi, natijaviyligi hamda fe'lning kontekstual ta'sir ostida bir semantik guruhdan boshqasiga o'tishi tahlil qilingan. Zamon va harakat tarzi kategoriyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va farqlar misollar yordamida yoritib berilgan.

Annotation: This article explores the semantic analysis of finite forms in the English verb system and the specific characteristics of the Aktionsart (lexical aspect) category. The paper examines the classifications proposed by linguists such as Z. Vendler and G. Verkuyl in the classification of predicate semantics. Furthermore, it analyzes the duration, boundedness, and resultativity of actions, as well as the transition of verbs from one semantic group to another under contextual influence. The interrelationships and distinctions between the categories of tense and aspect are illustrated through various examples.

Аннотация: В данной статье рассматривается семантический анализ форм финитных глаголов в английской глагольной системе и специфические особенности категории способа действия (Aktionsart). В работе анализируются классификации лингвистов, таких как З. Вендлер и Г. Веркюль, применительно к классификации предикатной семантики. Также анализируются длительность, ограничение и эффективность действия, а также переход глагола из одной семантической группы в другую под влиянием контекста. Для иллюстрации взаимосвязей и различий между категориями времени и способа действия используются конкретные примеры.

Kalit so'zlar: harakat tarzi, predikat semantikasi, aspektuallik, davomiylilik, perfektivlik, imperfektivlik.

Ключевые слова: стиль действия, предикатная семантика, аспектуальность, длительность, перфективность, имперфективность.

Keywords: action style, predicate semantics, aspectuality, duration, perfectivity, imperfectivity.

Ingliz tili fe'l sistemasida shaxsli shakllarning semantik tahlilida asosiy e'tibor fe'l bilan ifoda etilayotgan harakatning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash fe'lni qurshab turgan boshqa komponentlarning harakat mazmuniga ko'rsatayotgan ta'sirini tahlil etish aspektologiya sohasiga tegishli sanaladi. Ushbu soha voqea-hodisalar kechimini murakkab.



xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Fe'l shakllari semantikasining tadqiq etishga qaratilgan ishlarda harakat tarzi kategoriyasi mazmunini ko'rib chiqish predikat semantikasini tasniflash imkonini beradi. Bu tasniflash shundan iboratki, unda faqatgina fe'lning belgisi morfologik shakl emas, balki fe'lga ta'sir etuvchi ot guruhlari, o'lchov va miqdor birliklarini birlashtiruvchi murakkab til hodisalari hamkorlikda o'rganiladi. Harakat tarzi kategoriyasining ustunligi shundaki, unda predikat semantikasini tahlil qilish mumkin bo'lgan harakatning turli tuman xarakteristikalarini tavsiflanadi. G. Verkyul harakat tarzi (aksionsart) tarkibiy kategoriyalari gapning yuqori cho'qqisiga taalluqli, degan xulosaga keladi. Bunda gap boshqa kontekst ko'rsatkichlari keng miqyosda faollashadi. G. Verkyul aspektuallik perfekt va perfekt bo'lmagan (tugallangan va tugallanmagan) aniqlash imkonini beradigan formulalar tuzgan edi. Bu qarama-qarshilik fe'llarni semantika nuqtai nazaridan tasniflashga asoslangan. Harakat, jarayon holatga asoslangan klassifikatsiyadan farqli o'laroq, Z. Vendler fe'llarning semantik guruhini farqlaydi: 1) Faoliyat yoki gomogen jarayonlar-noaniq vaqt bo'lagi bilan bog'liq, davomiy harakatni anglatuvchi Activities, masalan: running. 2) Ma'lum vaqt bo'lagi bilan bog'liq avvalgi jarayon natijasida tayyorlangan harakatni bajarish (accomplishments)-masalan: running a mile. 3) Muayyan vaqt nuqtalari bilan bog'liq bir lahzalik harakatlar va natijalar: (achievements-reaching the top); 4) noaniq vaqt bo'lagi bilan bog'liq davomiy holatlar (states) jarayonlar. Z. Vendlerning yuqorida keltirgan klassifikatsiyasidan ko'rinib turibdiki, semantik guruhlar ayrim umumiy belgilarga egalar: davomiylik va bajaruv ma'lum jarayonlarini anglatib, ma'lum vaqtda davom etishni ifodalaydi. Mazkur ikki guruh uchun Continuous formada ishlatilish xosdir, ayni paytda ikki guruh shu bilan bir-birlaridan farq qiladi. Xuddi shunday fe'llarga xos bo'lgan chegaralanganlik/chegaralanmaganlik xususiyatlari ham muhim o'rin tutadi. Z. Vendler klassifikatsiyada holat fe'llarini barcha boshqa guruhlariga qarama-qarshi qo'yiladi. Shunisi qizikki bitta fe'lning o'zi o'z atrofidagi birikkan so'zlarga qarab turli guruhlariga kirishi mumkin. Masalan: He is thinking of Jones harakat va He thinks that Jones is a rascal-holat. Fe'lning harakat tarzi xususiyati barcha predikatlarda o'zini erkin namoyon etadi. Tus-zamon shakllarida esa harakat tarzi xarakteri predikat mazmuniga mos bo'ladi. Davomli shakldagi chegaralanmagan fe'llar, imperfekt, chegaralangan fe'llar perfektiv ma'noga ega bo'ladi. Mazkur hollarda shakl va mazmun farqlanadi. Shunday qilib ingliz tilida harakat tarzi kategoriyasining mavjudligi tan olinadi. Z. Vendler konsepsiyasida harakat tarzi kategoriyasi gapning yuqori cho'qqisiga, ya'ni uning predikatiga xos belgi sifatida tushuniladi, holbuki zamon kategoriyasi butun gapga taalluqli bo'lsa-da, harakat tarzi tartibida ko'rib chiqiladi. Fe'lning zamon kategoriyasi harakatning zamonda kechimi uning nutq paytiga bo'lgan munosabatini aniqlaydi. Harakat tarzi ma'nolarida esa zamon harakatning ichki xossasi, davom etishi, uning xarakteri sifatida namoyon bo'ladi. Z. Vendler tasnifi fe'l turini aniqlash imkonini beradi: holat va faoliyat-imperfekt bo'lsa, bajaruv va natija perfektidir. Aytish lozimki perfektlik va imperfektlik-to'lig'icha semantik tushunchalar sifatida baholanadi. Misol uchun holat o'zgarishi mavjud gaplarda imperfektlik va aksincha bir holatdan ikkinchi holatga o'tish yoki o'zgarishdan darak





beruvchi gaplarda natijaviylik, holat o'zgarishi, cheklanganlik kuzatiladi. Har qanday inkor mazmunidagi gap imperfektlidir. Holat va davomiylik tabiatlariga ko'ra imperfektivdir. Uning na boshi na oxiri bor. Shuning uchun bunday fe'llar ham oddiy, ham davomiy shakllarda ishlatiladi. My knee hurts\ is hurting qarama-qarshiligida aspektuallik o'rtasidagi farq emas, balki harakatning zamon xarakteristikasidagi farq ko'proq ko'zga tashlanadi: davomiy shaklda nutq paytiga nisbat berilsa, umumiy shaklda umuman zamonga nisbat berilayapti. Natijalar o'z tabiatlariga nisbatan perfektlidirlar. Ular davomiy bo'la olmaydilar. Odatda davomiy shaklda ham ishlatilmaydi. Masalan: to cease.umumiy shaklda umuman zamonga nisbat berilayapti. Natijalar o'z tabiatlariga nisbatan perfektlidirlar. Ular davomiy bo'la olmaydilar. Odatda davomiy shaklda ham ishlatilmaydi. Masalan: to cease.umumiy shaklda umuman zamonga nisbat berilayapti. Natijalar o'z tabiatlariga nisbatan perfektlidirlar. Ular davomiy bo'la olmaydilar. Odatda davomiy shaklda ham ishlatilmaydi. Masalan: to cease.One day that object would cease to move and when the body collapsed the soul would simply remove itself. So, to speak again of the lawyers, I stood between them, and there we were, three naked egos, three creatures belonging to the lower grade of modern rationality and calculation. [Saul Bellow Humbolt's Gift. 112 p]. Ba'zi shakllar jarayon mazmunini emas, balki ko'proq bir holatdan ikkinchi holatga o'tish yoki uning yaqinlashish paytini anglatadi. Masalan: The old man is dying-o'lish paytiga yaqin. Bundan tashqari natija fe'llarini ishlatilishda agar gap takrorlanayotgan lahzalik harakat haqida ketayotgan bo'lsa, imperfekt mazmuni ham ko'zga tashlanishi mumkin. Masalan: I woke up at 7 yesterday (perfektlilik aspekt) va I woke up at 7 for two weeks (imperfektlilik aspekt). Ayni paytda imperfektli fe'llarning (faoliyat va holat) muayyan kontekstlarda perfektiv mazmun olish hollarini tahlil qilish ham qiziqarli, ya'ni bunda fe'l anglatayotgan harakat davomiyligi bilan ziddiyatga kirishuvchi zamon holini ishlatilishi ko'zga tashlanadi: Now I know it. Z. Vendler bunday hollarda holat yoki faoliyatning boshlanish mazmunini ko'radi. Masalan: Then suddenly I remembered the name. Mazkur misolda zamondagi bir nuqtaga nisbat berilishi harakatning perfektiv ekanligini ko'rsatgan. Davomiy shakllarni tahlil qilishda mazkur o'ziga xos jarayonlik, harakatning davomiyligi singari belgilardan tashqari natijaga intilganlik semasi kuzatiladi. B. Komrining fikricha bu progressivning mazmuni unga odatda yuklanadigan jarayonlilikdan kengroqdir. Ingliz tilida mazkur shakllarning mazmun doirasi kengayib borishi grammatik shakllardan ko'ra leksik vositalar ustunligiga bog'liqdir. Ko'rinib turibdiki, harakat tarzi ma'nolari tadqiqi turli shakllarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi (Progressiv; noprogessiv, perfekt; noperfekt) nazariyasidan uzoqlashdi va asosiy e'tibor shakllarning va ular atrofidagi so'zlarning semantikasiga qaratildi. Aynan shuning uchun ham perfect; imperfektiv qarama-qarshiligi faqatgina fe'lga taalluqli emas, umuman o'z tabiatiga ko'ra murakkab hodisadir. Z. Vendler klassifikatsiyasining o'ziga xosligi shundaki, birinchidan fe'lning perfektivlikka yoki imperfektivlikka taalluqli bo'lishi uchun harakatning ichki bajaruv va tashqi (natija) chegarasining mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligi (faoliyat, holat) juda muhimdir. Bunday nuqtai nazar fe'lning harakat tarzi kategoriyasi bilan bog'liq o'rganiladi. Harakat tarzi (Aktionsart) va zamon (Tense) kategoriyalari





o'rtasidagi farq ham ta'kidlanadi: zamon butun gapga taalluqli bo'lsa, harakat tarzi fe'lining ichki xossasi, davom etishi va xarakteri sifatida namoyon bo'ladi. Harakat tarzi kategoriyasi ingliz tilidagi predikat semantikasini tahlil qilishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Verkuyl, H. J. A Young Person's Guide to the Theory of Tense and Aspect, 2001. – P. 45-47.
2. Vendler L. Verbs and times // Der englische Aspekt./Ed. By A.Schopf. –Darmstadt, 1974. – P. 217-234.
3. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш. 2-қисм. Лексикология ва семасиология. Грамматика. Т., 1999 57 б.
4. Comrie B. Aspect. An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems. –Cambridge, 1976. – P. 39, 46.
5. Бондарко А.В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии; отв. ред. В. Н.Ярцева – Ленинград: Наука, 1983. – 208 с.; Изд. 3-е, стереотип. – Москва: Эдиториал УРСС, 2003. – 208 с.
6. Падучева Е.П. «Накопитель эффекта» и русская аспектология // Вопросы языкознания. – М., 2004. № 5. -С. 46-57.